

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2025
PEDAGOGIKA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhhammadov, O.Q.Xasanova	
So'z boyligi bilan ishlashda didaktik tamoyillarni joriy etish.....	5
N.M.O'rinova, M.A.Qodirjonova	
Talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishning samarali usullari.....	9
D.M.Begmatova	
Individual yondashuv asosida talabalarda madaniy immunitetni rivojlantirish jarayonida foydalaniladigan texnologiyalarni tanlash tamoyillari	14
Kh.O.Jurayev D.Kh.Fayziyeva	
The role of media competence in the work of a teacher	18
D.G.Zaylobidinova	
Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarini kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirishning nazariy jihatlarini	22
F.I.Sharipova	
Tibbiyot oliygohlarida ingliz tilining akademik yozish o'qitish masalari	26
M.A.Tuxtabayev	
Janubiy Koreya ta'lim tizimida muhandislik kadrlarini rivojlantirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi.....	33
S.R.Uraimov, M.Sh.Abdubannobov	
Umumiy ta'lim maktablarida interaktiv trenajyorlardan foydalanish orqali jismoniy mashg'ulotlarni takomillashtirish.....	37
S.R.Uraimov S.G'.G'ofurov	
Umumiy ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya uchun innovatsion mobil ilova yaratish va uning samaradorligini o'rganish	41
S.B.Qodirov	
Yoshlarimiz ma'naviyati va intellektual salohiyatini oshirish ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning dolzarb masalalari	46
A.R.Saydullayeva	
Bo'lajak o'qituvchilarda ma'naviy ideallar vositasida kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.....	50
D.A.Abdusamiyev	
O'qituvchining kasbiy faoliyatida shaxs sifatida shakllanishi va uning maktab muhitiga moslashishi.....	55
A.X.Gafforov	
Maxsus fanlardan amaliy mashg'ulotlarni loyiha metodi asosida tashkil etishda raqamli ta'lim resurslarini qo'llash	59
F.V.Xalilov	
Ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirish muammolari.....	63
A.M.Mirzakulov, G.I.Yuldasheva	
Analogik muhitda kinematik hodisalarning simulyatsiya modellarini yaratish va o'qitish metodikasi.....	67
S.R.Toshboyeva, S.I.Usmonova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida diagrammalar asosida berilgan ma'lumotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish.....	72
M.E.Yulchiev	
Psychological and pedagogical foundations for establishing an integrative e-learning environment in energy-related technical education.....	76
M.O.Ismoilova	
O'quvchilarda kitob mutolaasi madaniyatini shakllantirish usullari	81
U.I.Obidjanov	
Biologiya fanini o'qitishda virtual laboratoriyalarning roli va imkoniyatlari	85
A.M.Tishabaev	
1991-2005-yillarda O'zbekistonda milliy va ommaviy sport turlarining rivojlanishi.....	91



UO'K: 37.015.3:37.091.3

TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI**ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ У УЧАЩИХСЯ КОМПЕТЕНЦИИ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ****EFFECTIVE METHODS OF FORMING STUDENTS' CRITICAL THINKING COMPETENCE****O'rinova Nilufar Muhammadovna¹** ¹Farg'ona davlat universiteti dotsenti**Qodirjonova Madinabonu Akmaljon qizi²**²Farg'ona davlat universiteti Pedagogika tarixi va nazariyasi mutaxassisligi magistri**Annotatsiya**

Mazkur maqolada oliy ta'lim talabalarida tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Tanqidiy fikrlash tushunchasi, uning mohiyati, oliy ta'lim tizimidagi roli va zamonaviy ta'lim jarayonida tutgan o'rnini ochib beriladi. Shuningdek, tanqidiy fikrlashni shakllantirishga xizmat qiluvchi innovatsion pedagogik metodlar, ta'lim texnologiyalari va didaktik vositalar ko'rib chiqiladi. Maqola pedagoglar, tadqiqotchilar va ta'lim jarayonida tanqidiy tafakkurni shakllantirishga qaratilgan innovatsion metodlarni qo'llashni maqsad qilgan mutaxassislar uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Аннотация

В статье анализируются теоретические и практические основы развития компетенций критического мышления у студентов высших учебных заведений. Раскрывается понятие критического мышления, его сущность, роль в системе высшего образования, место в современном образовательном процессе. Также будут рассмотрены инновационные педагогические методы, образовательные технологии и дидактические инструменты, способствующие развитию критического мышления. Статья может иметь практическое значение для педагогов, исследователей и специалистов, стремящихся использовать инновационные методы, направленные на развитие критического мышления в образовательном процессе.

Abstract

This article analyzes the theoretical and practical foundations of developing critical thinking competence in higher education students. The concept of critical thinking, its essence, role in the higher education system and its place in the modern educational process are revealed. Also, innovative pedagogical methods, educational technologies and didactic tools that serve to form critical thinking are considered. The article may be of practical importance for educators, researchers and specialists who aim to use innovative methods aimed at forming critical thinking in the educational process.

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, ta'lim texnologiyalari, innovatsion metodlar, kompetensiya, mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv, didaktik vositalar, ta'lim jarayoni.

Ключевые слова: критическое мышление, образовательные технологии, инновационные методы, компетентность, самостоятельное мышление, аналитический подход, дидактический инструментарий, образовательный процесс.

Key words: critical thinking, educational technologies, innovative methods, competence, independent thinking, analytical approach, didactic tools, educational process.

KIRISH

XXI asr kompetensiyalarini shakllantirish uchun ishlab chiqilgan xalqaro modellar ichida 4K kompetensiyalari butun dunyoda qo'llanilayotgan modellardan biridir. Ushbu modelda haqiqiy kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarga qo'shimcha ravishda, XXI asr ko'nikmalari doirasi taklif etilgan bo'lib, unda "innovatsion ko'nikmalar" sifatida –tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish, kreativlik va innovatsiya, kommunikativlik va kolloboratsiya, shuningdek "hayot" yoki "karyera" ko'nikmalarining katta to'plami ajralib turadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli farmonida "...talabalarda tanqidiy fikrlash, axbarotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish" vazifasi dolzarb masala sifatida belgilangan.

Shuningdek, Prezidentimiz o'z nutqlarida: "Tanqidiy tahlil, qa'tiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" deb ta'kidlab o'tganliklari [1] bu muammo pedagogika fani oldidagi muhim masalalardan biri ekanligini tasdiqlaydi.

Ushbu maqolada tanqidiy fikrlashning o'ziga xos xususiyatlari va ushbu kompetensiyani shakllantirishning ayrim usullari mohiyati ochib berilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tanqidiy fikrlash bo'yicha ilmiy ishlar kontsepsiyasini tahlil qilish ushbu tushuncha mohiyatini aniqlash imkonini yaratadi. Umuman olganda, tanqidiy fikrlash mantiqiy dalillar va fikrlash orqali oqilona, maqsadga yo'naltirilgan fikrni anglatadi. Oqilona mulohazalar yaratish uchun axborotni xolisona baholash va baholash uchun tanqidiy fikrlashdan foydalanamiz. Tanqidiy fikrlash qobiliyatlari bizga yangi ma'lumotlarni o'rganishga, murakkab tushunchalarni tushunishga va yaxshiroq qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Ob'ektiv va oqilona fikrlay olish qobiliyati shaxsiy va professional munosabatlarni yaxshilashi mumkin bo'lgan kompetensiyadir.

AQSh Mehnat Departamenti talabiga ko'ra tanqidiy fikrlash ish joyidagi eng kerakli ko'nikmalar qatoriga kiradi. O'rtacha vaqt ichida to'g'ri o'ylangan yechimni ishlab chiqish qobiliyati ish beruvchilar tomonidan yuqori baholanadi. Kompaniyalar muammolarni mustaqil hal qila oladigan va kompetensiyalarga ega xodimlarni qo'llab-quvvatlaydi. Kompetentli xodim vaziyatlarni tanqidiy va ijodiy baholay oladi, boshqalar bilan hamkorlik qiladi va to'g'ri xulosalar chiqaradi.

Tanqidiy fikrlash ham akademik tadqiqotning muhim tarkibiy qismidir. Tanqidiy fikrlash ko'nikmalari o'quvchilar uchun juda muhimdir, chunki ular o'quvchilarga oldingi bilimlarini mustahkamlash va yangi tushunchalarni shakllantirish hamda turli fanlar bo'yicha bilim va tajribalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Uning muhimligiga qaramay, tanqidiy fikrlash tabiiy ravishda yoki tasodifiy rivojlanadigan qobiliyat emas. Tanqidiy fikrlash ko'plab universitetlarda muhim ta'lim natijasi hisoblansa ham, taniqli tadqiqotda kollej talabalarining atigi 45 foizida (%) ikki yillik mashg'ulotlardan so'ng ularning malakasi rivojlanganligi aniqlanadi.

Ta'lim jarayonining bir qismi hisoblangan "tanqidiy tafakkur" atamasidan keng miqyosda foydalanish amerikalik faylasuf olimlariga borib taqaladi. Ushbu atamani mashhur amerikalik faylasuf Jon Duiy fanga kiritgan. Jon Duiy "tanqidiy tafakkur" atamasini ko'proq "Reflectiv thinking" (aks ettiruvchi fikrlash) atamasini qo'llagan va shunday ta'riflagan: "har qanday e'tiqod yoki bilimning taxminiy shaklini uni qo'llab-quvvatlovchi asoslar va u moyil bo'lgan keyingi xulosalar nuqtai nazaridan faol, qat'iyatli va diqqat bilan ko'rib chiqish". [2, 6].

Amerikalik olim D.Klusterning so'zlariga ko'ra, tanqidiy fikrlash savollar berish va hal qilinishi kerak bo'lgan muammolarni aniqlashdan boshlanadi. Olimning ta'kidlashicha, fikrlash individual xarakterga ega bo'lgandagina tanqidiy bo'lishi mumkin, ya'ni, tanqidiy fikrlash mustaqil fikrlashdir. Olimning ta'kidlashicha, tanqidiy fikrlash jarayoni yangi, allaqachon to'g'ri g'oyalar sinovdan o'tkazilganda, baholanganda, ishlab chiqilganda va qo'llanilganda sodir bo'ladi. [3, 218].

Tanqidiy fikrlash kompetensiyasining ta'lim jarayonidagi o'rni bo'yicha Paul va Elder tanqidiy fikrlashni argumentlarni tahlil qilish, muammolarni har tomonlama o'rganish va ratsional qaror qabul qilish qobiliyati sifatida ta'riflagan. Ular talabalarga chuqur savollar berish orqali tanqidiy fikrlashini rivojlantirish mumkin ekanligini isbotlashdi. [4].

J.Turdaliyev va S.To'rayevning "Oliy ta'lim tizimida tanqidiy fikrlashni shakllantirish usullari" maqolasida shunday ta'rif beriladi: "Tanqidiy fikrlash – bu insonning fikrini tizimli va mantiqiy tarzda rivojlantirish, muammolarni tahlil qilish, qaror qabul qilishda mustaqil va ob'ektiv yondashuvni qo'llash qobiliyati sifatida tushuniladi. Tanqidiy fikrlash jarayonida talabalar faqatgina ma'lumotni qabul qilmasdan, balki uni tahlil qilib, baholash va amaliyotga qo'llash qobiliyatini rivojlantirishi kerak." [5, 45].

NATIJA VA MUHOKAMA

Ilmiy manbalar tahlili hamda tadqiqot natijalariga ko'ra tanqidiy fikrlashni shakllantirishning bir necha samarali usullari aniqlandi, quyida ularning mohiyatiga to'xtalib o'tamiz.

Muammoli ta'lim – talabalar o'zlari muammolar yechimini izlash orqali faol o'rganadilar. Muammoli vaziyat muammoli ta'limning asosiy kategoriyasidir. Bu talabaning ma'lum bir ruhiy

holatini tavsiflaydi va “iroda harakati” bo‘lib, agar inson o‘zining mavjud bilimlaridan foydalangan holda yangi faktni tushuntira olmasa u aniq yoki noaniq ongli intellektual qiyinchilikka asoslanadi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish tizimli hodisa ekanligi nuqtai nazaridan, muammoli vaziyatda muammoni hal qilish bir necha bosqichlarda amalga oshirilishi mumkin:

muammoli vaziyatdan xabardor bo‘lish, muammoni tushunishni (o‘qituvchi tomonidan tayyor shaklda shakllantirilishi yoki muammo darajasiga qarab talabning o‘zi tomonidan belgilanishi mumkin), uni “qabul qilish” (talaba uchun shaxsiy ahamiyat)ni anglatadi (hissiy munosabat, o‘z muammosini hal qilish istagi);

vaziyatni tahlil qilish asosida muammoni shakllantirish va uni ijodiy vazifaga aylantirish (muammoni shakllantirish, uni maqsadga erishish vositasi sifatida taqdim etishni anglatadi);

muammoni hal qilish ko‘pincha muammoli masalalar orqali yechim izlash modeliga aylantirish, yechimning turli yo‘nalishlari, vositalari va usullarini muhokama qilish → muqobil yechimlarni ishlab chiqish → yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan oqibatlarni bashorat qilish → kichik guruhlarda muhokama qilish va yechimlarni tanlash bilan bog‘liq → yechimni ishtirokchilarga aniq va professional darajada savodli tilda yetkazish. Agar savol talabadan yangi muammoni hal qilish uchun intellektual mehnatni talab qilsa, turli nuqtai nazarlar shaklida ifodalangan qarama-qarshilikni o‘z ichiga olsa, turli xil javob variantlarini nazarda tutsa, “ha” yoki “yo‘q” kabi bir bo‘g‘inli javoblarni emas, balki javobni – aks ettirishni talab qilsagina muammoli hisoblanadi;

qarorni tekshirish → kasbiy etika tamoyillarini buzmaganda o‘z nuqtai nazarini muhokama qilish va himoya qilish.

Navbatdagi usullardan biri Suqrotona suhbat usuli bo‘lib, ushbu usul talabalarga chuqur savollar berish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan. Bu usul qadimgi yunon faylasufi Suqrot tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, uning mohiyati shundaki, bilim berish o‘rniga, savollar orqali talabani o‘z fikrlari ustida mulohaza yuritishga undash kerak. Suqrotona suhbat davomida savol-javob orqali ta‘lim berish – o‘qituvchi tayyor bilim bermaydi, balki talabani izlanishga undovchi savollar beradi, tanqidiy tahlil va mantiqiy tafakkur orqali talabalar o‘z fikrlarini dalillar bilan asoslashga va qarama-qarshi fikrlarni tahlil qilishga o‘rganadilar. Bu jarayonda fikrlar xilma-xilligini e‘tirof etish, turli nuqtayi nazarlarni tinglash va ularni tahlil qilish orqali mustaqil xulosa chiqarish rivojlantiriladi. Shu bilan birga refleksiya amalga oshiriladi talabalar o‘z fikrlarini doimiy ravishda qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirishga o‘rganadilar.

Suqrotona suhbat jarayonida muammo yoki mavzu tanlanadi → savollar orqali tahlil boshlanadi → talabalar fikr bildiradi va muhokama qiladi → xulosa chiqariladi, muhokama natijasida umumiy xulosa shakllantiriladi, talabalar yangi bilim va tushunchalarga ega bo‘ladilar.

S.D.Brookfield talabalarda tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishda munozara va bahs-munozara, roli o‘yinlar va simulyatsiya, “Tanqidiy holat tahlili”, ochiq savollar va refleksiya kabi interfaol metodlarni tavsiya qilgan [6].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ta‘lim jarayonida tanqidiy fikrlashni shakllantirish uchun nazariy va amaliy yondashuvlarni uyg‘unlashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda professor-o‘qituvchilarning tanqidiy fikrlash metodlarini qo‘llash bo‘yicha metodik malakasini oshirish muhim hisoblanadi. Quyidagi pedagogik usullar talabalarda tanqidiy fikrlashni samarali rivojlantiradi:

Muammoli ta‘lim (Problem-Based Learning – PBL). Talabalarga tayyor bilim berish o‘rniga, ularga muammoli vaziyatlar taqdim etilib, mustaqil yechim topishlari talab qilinadi. Bu usul talabalarni mustaqil tahlil qilish, dalillarni solishtirish va optimal yechim topishga undaydi.

Munozaralar va bahs-munozaralar (Debates and Discussions). Munozaralar va bahs-munozaralar talabalarni fikrlashga, dalillarni tahlil qilishga, mantiqiy xulosa chiqarishga va o‘z qarashlarini asoslab berishga o‘rgatish uchun samarali interfaol metodlar hisoblanadi. Ular ta‘lim jarayonida talabalarning analitik fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish, o‘z nuqtayi nazarini himoya qilish va boshqalarning fikrlarini tanqidiy baholashga yordam beradi.

Munozara – ochiq muloqot shakli bo‘lib, bunda ishtirokchilar turli fikrlarni o‘rganib, muhokama qilishadi. Munozara qatnashchilari o‘z pozitsiyalarini keskin himoya qilmasligi, balki muammo bo‘yicha turli nuqtayi nazarlarni tahlil qilishi mumkin.

Bahs-munozara (debate) – bunda ishtirokchilar qarama-qarshi pozitsiyalarda turib, o‘z fikrlarini dalillar bilan himoya qilishga harakat qilishadi. Har bir tomon o‘z fikrining to‘g‘riligini isbotlashga intiladi [7;12-13].

Teskari fikrlash – bu muammoga odatiy bo'lmagan nuqtai nazardan yondashish va uni o'zgacha yo'l bilan hal qilishga qaratilgan usuldir. Ushbu metod talabalarni ijodiy va tanqidiy fikrlashga o'rgatish, yangi g'oyalar yaratish hamda innovatsion yechimlarni topish uchun ishlatiladi. Teskari fikrlash metodining mohiyati shundaki, unda odatdagi savollarga aksincha yondashiladi. Masalan, "Muammoni qanday hal qilish kerak?" deb so'rash o'rniga, "Bu muammoni yanada yomonlashtirish uchun nima qilish kerak?" degan savol qo'yiladi. Bu yondashuv odatiy fikrlash andozalarini buzib, kutilmagan yechimlarni topishga yordam beradi.

Teskari fikrlash metodi muammoni aniqlash → savolni teskari qo'yish → g'oyalarni to'plash → teskari fikrlarni ijobiy echimlarga aylantirish → yangi echimlarni sinovdan o'tkazish. Eng samarali echimlar tanlanib, amaliyotda qo'llash strategiyasi ishlab chiqiladi.

Reflektiv yozuvlar va tahliliy esse (Reflective Writing and Analytical Essays). Talabalar o'z fikrlarini yozma ravishda asosli bayon qilish orqali fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Ular turli ma'lumotlarni tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarishni mustahkamlaydilar [8; 251].

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish uchun an'anaviy yondashuvlardan ko'ra interfaol usullar samaraliroq hisoblanadi. Pedagoglar talabalarga tayyor bilim berish o'rniga, ularni faol o'rganuvchi sifatida shakllantirishlari zarur.

XULOSA

Xulosa qilib aytganimizda, oliy ta'lim tizimida talabalarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Tanqidiy fikrlash nafaqat bilimlarni o'zlashtirish jarayonida, balki kundalik hayotda ham mustaqil va asosli qarorlar qabul qilish, mavjud muammolarni tahlil qilish va samarali hal etish uchun zarur bo'lgan muhim kompetensiyalardan biridir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tanqidiy fikrlashni shakllantirish uchun maxsus pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish va interaktiv o'qitish metodlarini qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqolada tanqidiy fikrlashning mohiyati, uning tarkibiy jihatlar va ta'lim jarayonidagi o'rni atroflicha tahlil qilindi. Oliy ta'lim muassasalarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun muhokama va bahs-munozaralarga asoslangan ta'lim metodlari, muammoga yo'naltirilgan ta'lim (Problem-Based Learning), kognitiv strategiyalar, reflektiv tahlil, ijodiy va tanqidiy yondashuvlarni rivojlantirishga qaratilgan usullar samarali ekani aniqlandi. Bu metodlar talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish bilan birga, ularning analitik tafakkurini mustahkamlash va turli vaziyatlarga moslashishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish nafaqat talabaning akademik natijalarini yaxshilash, balki ularning mustaqil qaror qabul qilish, lo'nda va aniq fikr bildirish, yangi g'oyalar yaratish, muammolarni hal qilish kabi qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish zarur.

Maqolada keltirilgan tahlillar va tavsiyalar pedagoglar, tadqiqotchilar va ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish istagidagi mutaxassislar uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lib, oliy ta'limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bo'yicha samarali yo'nalishlarni belgilashda qo'llanilishi mumkin. Shu boisdan, kelgusida ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bo'yicha yanada chuqur tadqiqotlar olib borish, ta'lim metodlari va texnologiyalarini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 08.10.2019-yildagi PF-5847- sonli Farmoni.
2. Dewey John, 1910, "How We Think", Boston: D.C. Heath. [Dewey 1910 available online]
3. Kluster, D. (2005). What is Critical Thinking? Journal of Educational Thought, 41(3), 211-224.
4. Paul, R., & Elder, L. (2014). Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life (3rd ed.). Pearson Education.
5. Turdaliyev, J. & To'rayev, S. (2019). Oliy ta'lim tizimida tanqidiy fikrlashni shakllantirish usullari. Pedagogika va psixologiya ilmiy jurnali, 3(2), 45-59.
6. Brookfield, S. D. (2012). Teaching for Critical Thinking: Tools and Techniques to Help Students Question Their Assumptions. San Francisco: Jossey-Bass. ISBN: 978-0-470-88934-3.

PEDAGOGIKA

7. Ennis, R. H. (1987). A Taxonomy of Critical Thinking Dispositions and Abilities. Teaching Thinking Skills: Theory and Practice. J. B. Baron & R. J. Sternberg (Tahr.), New York: W. H. Freeman and Company, 9-26.
8. Seale, C. (2010). Educational Strategies for Developing Critical Thinking Skills in University Students. Journal of Higher Education Research, 25(3), 245-260.
9. Shakirova, D. M. (2007). Technology for the Shaping of Critical Thinking in Students. Journal of Teaching and Learning, 4(2), 153-161.